



ANDIJON
VILOYATINING
CHAKANA SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
(dastlabki
ma'lumotlar)

Jami chakana savdo tovar
aylanmasi – 941,2 mlrd. so'm



Yirik
korxonalar

- 102,1 mlrd.
so'm
- 94,1 %



Kichik biznes va
xususiy
tadbirkorlik

- 839,1 mlrd.
so'm
- 106,0 %




Uyushmagan
savdo

- 88,3 mlrd.
so'm
- 101,3 %

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 941,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 4,5 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 102,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 839,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 88,3 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 1,3 %) tashkil etdi.

HUDUDLAR
KESIMIDA
CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
ULISHI
(foizda)






CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(mlrd. so'm, foiz)

	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Andijon viloyati	941,2	104,5	102,1	106,0	839,1	106,0
Andijon shahar	305,7	105,1	81,5	93,7	224,2	110,0
Xonobod shahar	9,2	104,3	0,4	112,9	8,8	103,9
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'1	33,0	104,2	2,0	5,7 M	31,0	98,9
Andijon	46,1	104,5	3,7	94,5	42,4	105,5
Baliqchi	48,8	103,2	1,4	89,9	47,4	103,7
Bo'ston	8,8	105,4	0,9	22,8 M	7,8	94,5
Buloqboshi	22,6	104,4	0,5	95,6	22,0	104,6
Jalaquduq	32,2	104,1	0,6	106,8	31,6	104,1
Izboskan	41,4	104,4	0,5	68,5	40,9	105,0
Ulug'nor	9,0	104,2	0,0	50,5	9,0	104,5
Qo'rg'ontepa	69,7	105,0	0,9	102,4	68,8	105,0
Asaka	104,1	104,3	4,8	74,1	99,3	106,4
Marxamat	32,2	103,8	0,8	104,4	31,4	103,8
Shaxrixon	97,6	104,2	2,6	64,9	95,0	105,9
Paxtaobod	38,9	105,0	1,0	114,1	37,9	104,8
Xo'jaobod	42,1	104,1	0,5	114,2	41,6	104,0


2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'ston, Qorg'ontepa, Paxtaobod, Andijon tumanlari va Andijon shahrida qayd etildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI O'SISH SUR'ATLARI
(foizda)






**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi va o'sish
sur'atlari)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 94,4 % ni va 101,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 821,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 5,9 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,2 % ga teng keldi.

**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi mlrd. so'm)






**CHAKANA SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING HUDUDLAR
KESIMIDA ULUSHI
(foizda)**



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,7 %), Izboskan (98,8 %), Xo'jaobod (98,8 %), Qo'rg'ontepa (98,8 %) va Jalaquduq (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (26,7 %), Bo'ston (10,8 %) va Andijon tumanlarida (8,1 %) kuzatilgan.

**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI
(foizda)**



**Kichik biznes
va xususiy
tadbirkorlik**

Yirik korxonalar

**Uyushmagan
savdo**

**ANDIJON
VILOYATI
BO'YICHA AHOLI
JON BOSHIGA
NISBATAN
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(ming so'm)
VA O'SISH
SUR'ATLARI
(foizda)**


2020-yil yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 303,9 ming so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 2,6 % ga o'sdi) va respublikaning barcha hududlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari kuzatildi.

	Hajm, ming so'm	O'sish sur'atlari
Andijon viloyati	303,9	102,6
Andijon shahar	698,2	103,4
Xonobod shahar	218,2	102,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	188,6	102,2
Andijon	177,9	102,3
Baliqchi	247,2	101,3
Bo'ston	123,8	103,5
Buloqboshi	160,5	102,6
Jalaquduq	175,7	102,4
Izboskan	176,8	102,3
Ulug'nor	152,9	102,2
Qo'rg'ontepa	327,6	103,1
Asaka	322,7	102,2
Marxamat	188,7	101,9
Shaxrixon	331,4	102,0
Paxtaobod	204,9	103,1
Xo'jaobod	389,1	102,0

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Andijon shahri (698,2 ming so'm), Xo'jaobod (389,1 ming so'm) va Shaxrixon (331,4 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.




ANDIJON
VILOYATI
HUDUDLARI
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
O'SISH
SUR'ATLARI
(foizda)



2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 17,8 mlrd. so'mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,7 % o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

HUUDLAR
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
HAJMI
(mlrd. so'm)



Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 39,9 %) to'g'ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Shahrixon (11,6 %), Asaka (7,8 %) va Andijon (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.



**ULGURJI
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI**

**Ulgurji savdo
tovar aylanmasi**

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **215,2 mlrd.** so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **13,9 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **52,1 mlrd.** so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **195,5 %** ga o'sdi.

24,2 %

Kichik korxonalar

Savdo hajmi:
79,6 mlrd. so'm
O'sish sur'ati: **100,4 %**

37,0 %


Mikrofirmalar

Savdo hajmi:
83,5 mlrd. so'm
O'sish sur'ati: **100,6 %**

38,8 %

**YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI
ULUSHI, %**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 163,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 100,5 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 75,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Andijon shahrida (64,7 %), Baliqchi (100,0 %), Buloqboshi (100,0 %), Izboskan (99,9 %) va Andijon (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





HUDUDDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mln. so'm) VA O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O'SISH SUR'ATLARI (foizda)	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
	Andijon viloyati	215 167,8	113,9	52 134,7	195,5	163 033,8
Andijon sh.	98 278,4	116,3	34 684,0	187,1	63 594,4	96,4
Xonobod sh.	1 391,9	109,3	80,3		1 311,6	103,0
tumanlar:						
Oltinko'l	4 864,7	102,2	18,4	274,1	4 846,4	102,0
Andijon	7 709,3	101,7	4,8	17,0	7 704,5	102,0
Baliqchi	4 165,6	100,9	2,1	8,2	4 163,5	101,4
Bo'ston	2 135,1	103,3	12,1	57,8	2 123,0	103,7
Buloqbohi	1 690,2	103,4	0,0		1 690,2	103,4
Jalaquduq	1 962,1	104,4	13,7	241,9	1 948,4	104,0
Izboskan	8 681,4	102,8	11,1	26,7	8 670,4	103,2
Ulug'nor	947,2	104,5	9,6	162,3	937,6	104,1
Qo'rg'ontepa	12 117,8	112,3	8 206,9	117,1	3 910,9	103,4
Asaka	58 908,9	120,8	8 574,5		50 334,4	103,2
Marxamat	565,6	101,5	0,6	5,3	565,0	103,5
Shahrixon	9 130,7	101,9	502,3	53,4	8 628,4	107,5
Paxtaobod	1 954,2	101,6	10,2	64,2	1 944,0	101,9
Xo'jaobod	664,6	101,5	3,5	19,8	661,1	103,8


2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Andijon shahrida (116,3 %), Oltinko'l (2,7 m.) va Jalaquduq tumanlarida (2,4 m.) kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida nisbatan yuqori o'sish sur'ati Shahrixon tumanida (107,5 %) qayd etildi.



**HUDUDLAR
KESIMIDA
ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI-
NING O'TGAN
YILGA
NISBATAN
O'ZGARISH
SUR'ATLARI, %**

Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Andijon shahar 45,7 %, Asaka 27,4 %, Qo'rg'ontepa 5,6 %, Shaxrixon 4,2 % tumanlarida qayd etildi.



Ulgurji tovar aylanmasida 2019-yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahrida (116,3 %) Asaka (120,8 %) va Qo'rg'ontepa tumanida (112,3 %) qayd etildi.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

Tel: (74) 228-30-57